

OQIM (HIKOYA)

Yunusov Ahmadillo Rahmatullayevich,

Andijon viloyati Oltinko'1 tumani 12- maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Bahor kelib, olam go'yo yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'xshab qoldi. Tabiatning fe'l-atvori ham xuddi go'daknikiga o'xshaydi: injiq, beqaror. Mana, necha kundirki, osmonning qovog'i ochilmaydi, tinimsiz yog'ayotgan yomg'irdan Qahramon akaning ham zerikkani yuz-ko'zlaridan ko'rinib turibdi. Tun yarimlab qolganiga qaramasdan, ayvondagi ko'chma so'riga o'tirib olib, indamay hayol surib o'tirgan Qahramon aka Orzigul opaning horg'in tovushini eshitdi-yu, asarini yozib tugatgan yozuvchidek, qo'llarini tizzalariga ohista urib o'rnidan turdi. Nimaga shu paytgacha uxlamadingiz dadasi? Tashqari sovuq, shamollab qolmang yana, - dedi Orzigul opa, - O'zi tinchlikmi, yo biror gap bo'ldimi?

Qiziqmisan, nimayam bo'lardi, hech gap yo'q. Kichginagina qishloqda nima ham bo'lardi... Qahramon aka shunday dedi-yu, biroz jim bo'lib qoldi. Baribir uxlay olmagach, xotiniga ko'nglini yorgisi keldimi, - "Orzigul, uxlamayapsanmi?", - dedi.

-Yo'q, sizni ko'rib meni ham uyqum ham o'chdi, tinchlikmi?

-Qara, odamlar shunchalik o'zgarib ketdimikin, - dedi va xo'rsinib qo'ydi.

-Ochiqroq gapirsangiz-chi odamni qiynamasdan, yoki ishxonangizda noxushlik bo'ldimi ?

Yog'e, arzigulik gap emas. Bir masalada ishxonadagilar norozi bo'lib yurishgandi, hattoki, yoshingiz kattaroq, aka, siz boshliqqa ayting, sizni hurmat qiladi, deb menga ham gapirishgandi.

-Uff... yanami?!

Orzigul opaning xunobi oshdi:

Axir necha marta aytdim, o'zingizni o'ylasangiz-chi. Koshki edi sizga...

-Ee, bo'ldi qil! Sen bilan gaplashib maza topmaydi odam...

-Sizni o'ylab gapiraman-da, gapirsam .

-Odam qo'lidan kelgan yordamini boshqalardan ayamasligi kerak.

-Ho'p, keyin nima bo'ldi ?

-Men boshlig'imning oldiga kirib, shu masalada o'z fikrimni aytdim. Shuni muhokama qila turib tortishib qoldik. Bugun yig'ilish qilib, bir ikki do'q aralash gaplardan keyin boshliq menga qarab har xil gaplarni gapirdi. Eng qizig'i, yon-atrofimda o'tirganlarning ko'pchiligi menga norozi kayfiyatda ko'z qirini tashlar va hechkim bunga munosabat bildirmasdi. Kim biladi balki menga shunga o'xshab ko'rindimi...

Ayasi...

Orzigulning uyquga ketganini sezmay ham qolgan Qahramon aka shiftga termulganicha sahar mardongacha o'ylanib yotdi.

Ertalab tungi bedorlik sabab kechroq turgani uchun nonushta qilmay ishga jo'nadi. Aksiga olgandek, cho'ntagidagi puli faqat avtobusda borib kelishga yetar ekan. Avtobus deyarli to'lgandi. Lekin shafyordan hamon darak yo'q. Odam to'lguncha bozor ichiga ovqatlanish uchun kirib ketgan haydovchi bir soatga yaqin vaqt o'tganiga qaramay, qorasini ko'rsatgani yo'q. Kutayotganlarning aksariyati yoshi kattalar. Oq-qora forma kiygan o'spirin yigit- qizlar bekat ustuniga suyanib olib bir nimalarni tinimsiz gapirib kulishadi, tugun ko'tarib olgan, yasan -tusan qilgan onaxonlar boshlarini sarak -sarak qilishib, bir-birining gaplarini ma'qullaydi; yuzlari betoqatlikdan tirishayotgan bir necha kishilar avtobusdan tushib olgan, u yoqdan bu yoqqa yurib, o'zlaricha bir narsalarni g'o'ng'illaydi, so'kinishadi.

-Buncha kelaqolmadi-ya! Qahramon akaning yoniga kelib o'tirgan o'rta yoshli kishi u bilan salomlashgach, so'zida davom etdi:

-Hozirgi zamonda tagingda mashinang bo'lmaganidan keyin shunaqa! O'zi birovga ishing tushmasindaa!. Kelaqolsa-chi endi, e, padarla'nat!

Iye, qo'ying, asabiylashmang, kepqoladi.

Ko'rmaysizmi, qancha odam kutyapti?! Ana, Sobir molfurush ham tinmay shafyorni so'kib yotibdi. Hali kelsin...

Boshqalar ham uning gapiga qo'shilib, haydovchini toza so'kishadi.

Zaharni yesin, shuncha odamni mahtal qilmay!

To'g'ri, odamlar ham har xil bo'larkanda!

Ha, shunaqa boqibeg'am, mas'uliyatsiz insonlar ham ko'pda...

Hamma bir-bir shafyorning sha'niga o'z so'zini aytadi. Qahramon aka ham ichida "to'g'rida, bunchalik beg'am bo'lish ham erimas" deb o'ylab tugandi, nihoyat, haydovchi keldi. Odamlar orasidan "hayriyate, keldingizmi" degan ovozlar tarqaldi. Pastdagi lar shosha-pisha avtobusga chiqisharkan, "bormisiz ukajonim, sizni kutaverib ko'zimiz to'rt bo'ldiku" deya g'ala-g'ovur qilishadi. Qahramon aka avtobusning old tarafidan chiqib, shafyorga yaqinroq joyga o'tirgan ekan, shafyorga: "Buncha kech qolib kelmasangiz, shuncha odam kutib o'tiribdi. Unaqamasda ukam",- dedi.

E, aka, biz ham o'ynab yurganimiz yo'q. Bizdayam plon degan narsalar bor! Ha idan to'ldirib ketmasam plonni kim bajaradi! Meni choy-poy ichishga haqqim yo'qmi, yo nima haydovchi odam emasmi?

Tog'ri, sizgayam osonmas, o'rgilay.

Rost aytasiz, shafyorgayam qiyin, kun bo'yi avtobus haydash osonmi?!

Men aytmoqchimanki, bu yerda kattalar ... Shafyor Qahramon akaning gapini cho'rt kesdi.

Ee aytdimku men ham o'ynab yurganim yo'q, nima keragi bor odamni asabini buzishni, ee!

Voy, nega muncha bechorani tergadingiz.

-Hmm, hammani kayfiyatini buzib, senga nima...

Bekorga vaqtni olib nima keragi bor maydalashishishning.

Birin-ketin avtobusdagilar Qahramon akani koyiy boshladilar. Hamma unga yovqarash qilar, Qahramon aka esa nima bo'layotganini bir zum tushunolmay ham qoldi.

-Aka shopirni asabini buzib nima qilasiz, vaziyatini tushuntiryaptiku, bo'ldida!

Shafyor yana o'zini oqlab bir nimalar dedi.

Qahramon aka qizarib bir lahza qotib qoldi. Shu o'tirganicha bir muddat nima haqida o'ylayotgani ham unutdi. Keyin o'z-o'ziga savol berdi: "Nahotki odamlar ... yoki men o'zim... Ha, balki shundaydir..." Avtobusdagi odamlar allaqachon boshqa narsalar haqida g'ala g'ovur qilar, ammo hech bir gap uning qulog'iga kirmasdi. Qahramon aka biroz oldin avtobusni ham, shafyorni ham so'kib turgan odamlarni, ishxonasidagi hamkasblarining majlisdagi qarashlarini bir-bir ko'z oldidan o'tkazdi-yu, anchadan beri yecha olmagan misolining yechimini topgandek, ma'noli bosh irg'ib qo'ydi. Avtobus ketib borar, oynalardan maydagina yomg'ir tomchilari oqardi...